



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar  
131

Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali kelib tushgan murojaatlar  
437

To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar  
514



Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi kelib tushgan og'zaki murojaatlar  
140

**Davlat statistika Qo'mitasiga 2020-yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 1222 ta murojaatlar kelib tushgan.**

**Ulardan, 131 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 437 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 514 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 140 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.**





## Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2020-yil yanvar-noyabr holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



518 tasi (jamiga nisbatan 42,3 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



266 tasi (21,7 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



206 tasi (16,8 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



97 tasi (8 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan



86 (7,1 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan



14 tasi (1,2 %) qo'mita vakolatlari, faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan



35 tasi (2,9 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan







## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2020-yil yanvar-noyabr oylari holatiga

Jami: 1222



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 1222 ta murojaatlarning 1069 tasiga chora ko'rildi, 146 tasi tushuntirildi, 7 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 40,1 % (489 ta) jismoniy shaxslar va 59,9 % (733 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.





# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2020-yil yanvar-noyabr

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2019-yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2020-yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13	27
Andijon viloyati	28	15
Buxoro viloyati	15	34
Jizzax viloyati	30	25
Qashqadaryo viloyati	25	22
Navoiy viloyati	12	25
Namangan viloyati	32	21
Samarqand viloyati	26	26
Sirdaryo viloyati	19	17
Surxondaryo viloyati	17	17
Toshkent viloyati	74	93
Farg'ona viloyati	44	33
Xorazm viloyati	20	20
Toshkent shahar	885	842
Boshqa hududlardan	2	5

Davlat statistika Qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 842 ta (o'tgan yilning shu davrida 885 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 27 ta, Toshkent viloyatidan 93 ta, Farg'ona viloyatidan 33 ta, Namangan viloyatidan 21 ta, Jizzax viloyatidan 25 ta, Samarqand viloyatidan 26 ta, Andijon viloyatidan 15 ta, Qashqadaryo viloyatidan 22 ta, Surxondaryo viloyatidan 17 ta, Xorazm viloyatidan 20 ta, Sirdaryo viloyatidan 17 ta, Navoiy viloyatidan 25 ta, Buxoro viloyatidan 34 ta va boshqa Respublikalardan 5 ta murojaatlar kelib tushgan.





## Eslatib o'tamiz:

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaar qiling:



"Ishonch telefon"lari: (71) 202-81-80



Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 202-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi [pm.gov.uz](http://pm.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo`mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi: (71) 202-81-77**

---

Manzil: 100170, Toshkent sh.,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

Pochta manzili: [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)